

## **INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY ONGNI RIVOJLANTIRISH (boshlang‘ich sinf misolida)**

**Artikova Muhayyo Botiraliyevna**

*Andijon davlat pedagogika instituti professori,  
pedagogika fanlari doktori*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada “integratsiya”, “integrativ yondashuv”, “integrativ mashg‘ulot”, “integrativ yondashuvli pedagogik texnologiya” atamalari, integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirish shartlari, integrativ yondashuvning afzalliklarini xususida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, integrativ dars o‘quvchilarning o‘rganish ehtiyojlariga mos tushishi, o‘rganish imkoniyatlarini taqdim etish bilan birgalikda turli fanlarning bir-biriga bog‘liqligi, “fanlarning keskin chegarasi”dan chiqib, fanlararo fikrlash, tushunish, mulohaza qilish imkoniyatini yaratishi bo‘yicha xulosalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** integratsiya, integrativ yondashuv, ijtimoiy ong, o‘rganish imkoniyatlari, fanlararo fikrlash, tushunish, mulohaza qilish, yaxlitlik.

## **РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА (на примере начальной школы)**

**Артыкова Мухайё Ботиралиевна**

*Профессор Андижанского государственного  
педагогического института, доктор педагогических наук*

**Аннотация:** В данной статье освещаются понятия "интеграция", "интегративный подход", "интегративное обучение", "педагогическая технология с интегративным подходом". Также анализируются условия развития общественного сознания у студентов на базе интегративного подхода и преимущества его использования. Важным аспектом является соответствие интегративного урока учебным потребностям учащихся, обеспечение возможностей для обучения, гармоничное взаимодействие

различных дисциплин и преодоление "границы дисциплин", а также создание условий для междисциплинарного мышления, понимания и рассуждения.

**Ключевые слова:** интеграция, интегративный подход, общественное сознание, возможности обучения, междисциплинарное мышление, понимание, рефлексия, целостность.

## **DEVELOPMENT OF SOCIAL CONSCIOUSNESS OF STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH (using the example of elementary school)**

**Artykova Mukhayo Botiraliyeva**

*Professor Andijan State Pedagogical Institute,  
Doctor of Pedagogical Sciences*

**Annotation:** This article covers the concepts of “integration”, “integrative approach”, “integrative learning”, “educational technology with an integrative approach”. The conditions for the development of social consciousness among students based on the integrative approach and the advantages of its use are also analyzed. An important aspect is the correspondence of the integrative lesson to the learning needs of students, providing opportunities for learning, harmonious interaction of different disciplines and bridging the “discipline boundaries”, as well as creating conditions for cross-curricular thinking, understanding and reasoning.

**Key words:** integration, integrative approach, social consciousness, learning opportunities, interdisciplinary thinking, understanding, reflection, integrity.

Pedagogik amaliyotda “integratsiya”, “integrativ yondashuv”, “integrativ mashg‘ulot”, “integrativ yondashuvli pedagogik texnologiya” atamalari mazmunan bir maqsadda, ma’noda qo‘llaniladi va umumiy tarzda “... axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko‘p kichik qismlarning o‘zaro ajralmas bog‘liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to‘g‘ri xulosani aniqlash” deb ta’riflanadi.<sup>1</sup>

Integratsiya tushunchasi o‘quv-tarbiya jarayoni elementlari o‘zaro birligini ta’minlaydi, ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishning maqsadlari, mazmuni va tamoyillari birligini ifoda etadi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonini integrativ

---

<sup>1</sup> Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: 2004. – 56 B.

yondashuvli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etish samarasi sifatida aytish mumkinki, u orqali o'quvchilar ongida yo'naltiruvchi faoliyatning asoslari haqida tushunchalar shakllanadi, mantiqiy va obrazli fikrlashga o'rganiladi. O'quvchilar o'quv fanlarini an'anaviy shaklda o'rganganda olingan bilimlar turli vaqt oralig'ida egallanadi. Integrativ yondashuv sharoitida esa ular bilim va faoliyat usullarini turli tizimlar doirasida egallaydilar.

**Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirishda quyidagi shartlarni bajarishi lozim bo'ladi:**

1. Mazmun jihatdan bir-birlariga yaqin bo'lgan turli elementlarning mavjudligi.
2. Ta'lim maqsadidan kelib chiqqan holda ularni yaxlitlikka birlashtirishga ehtiyojning paydo bo'lishi.
3. Yaxlitlik shakllanishida zaruriy minimum darajada komponentlar mustaqilligining saqlanishi.

Integrativ yondashuv fanlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik, uzviylik kabi bir-biriga mazmunan yaqin tushunchalar orqali shakllanadi va unda aynan fanlararo aloqadorlik murakkabrog'i hisoblanadi.

Fanlararo aloqadorlik mazmunan bir-biriga yaqin, turdosh tushunchalar, mavzular, o'quv fani bo'limlari darajasida o'rnatilishi va bilimlarning o'quvchilar tomonidan ongli ravishda chuqurroq o'zlashtirilishiga imkon yaratadi, biroq bunda tizimli aloqalarni ta'minlanmaydi.

**O'quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirishda integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan dars mashg'ulotlarining vazifalari quyidagilardan iborat:**

- o'quvchilarda jamiyat, ijtimoiy hayot, unda kechadigan jarayonlar haqidagi bilimlarni yosh xususiyatlariga mos ravishda shakllantirish;
- o'quvchilarda mustaqil fikrlash, jamiyatdagi muammolarni to'g'ri payqay olish, o'z munosabatini bildirish, ulardan xulosa chiqarish va muammolarni hal etish yo'lini topish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- jamiyatdagi muammolarni bilish, tushunish, turli aspektlardan baholay

olish, taqqoslash, tahlil qilish, sintez qilish, muammolarning sabab-oqibat tizimida tahlil qila olish malakalarini rivojlantirish;

- o'quvchilarda individual va ijtimoiy ongni rivojlantirish – ularni jamiyatni rivojlantirish vositasi va yashab turgan borliq, jamiyatni anglash usullaridan biri sifatida rivojlantirish;

- o'quvchilarda ijtimoiy ongni va milliy qadriyatlarga munosabatda bo'lishning asosi sifatida shaxsiy "men"ini va komil inson timsollarini shakllantirish.

Fanlararo tasavvurlar aqliy faoliyatning eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. Ular bilimlarning turli tizimlarini birlashtiradi, voqea-hodisalarni xilma-xilligini bilishga imkoniyat beradi. Shu asosda umumiy tushunchalar kelib chiqadi. Tizimlararo tasavvurlarning shakllanishi, ularni bilimlardan foydalanishga, ularni bir-biriga bo'ysundirishga, bilimlar chegarasidagi bo'shliqlarni aniqlashga imkon beradi.

**Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, o'quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirishda integrativ yondashuvning afzalliklarini quyidagicha tavsiflash mumkin bo'ladi:**

- ajratilgan vaqtda samaradorlikka erishish uchun dars jarayonini jadallashtiradi;

- vaqtdan unumli foydalanish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan o'quv jarayonida keng foydalaniladi;

- o'quvchilarning vaqtdan unumli foydalanishlari uchun o'quv materiallari hajmi ortadi;

- dars jarayonida turli guruhlarda bir mavzuning turli jihatlari ko'rib chiqishiga erishiladi va o'quvchilar ommaviy axborot vositalari: gazeta, televideniya, radio, internet, shuningdek, turli adabiyotlardan foydalanadi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilar avvalambor o'zi yashayotgan ijtimoiy muhit, jamiyatning mazmun-mohiyatini anglab yetishi va buning asosida faoliyatini belgilab olishi, o'zini-o'zi rivojlantirishi va jamiyat hayotiga tayyorlanadi. Bu orqali o'quvchilarda individuallik namoyon bo'ladi, ijtimoiy ong

rivojlanishi kuzatiladi.

Zamonaviy fanlarning rivojlanish an'anasiga e'tibor qaratilsa, ular bir qator fanlarning integratsiyalashuvidan hosil bo'lganini kuzatish mumkin bo'ladi. Falsafa, tabiatshunoslik va madaniyat fanlari integratsiyalashuvi natijasida fizika fani, biologiya va texnika fanlari integratsiyalashuvi natijasida esa kibernetika faniga asos solindi. Shuningdek, maktab o'quv fanlari, ulardagi mavzularning integratsiyalashuvi o'quvchilarda yangi bilimlar, o'rganish strategiyalari, turli nuqtai nazarlarni hisobga olgan holda fikrlashini ta'minlaydi. Eng muhimi esa, integrativ yondashuv kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda fikr doirasi keng bo'lgan muloqot san'atining boshlang'ich savodini egallashga yordam beradi. Bu esa o'zida odamlar bilan muloqotdan tortib (tengdoshlar, katta yoshdagilar, kichik yoshdagilar), o'z-o'zi bilan muloqotdan, to atrof-muhitdagi voqea-hodisalar bilan muloqotni qamrab oladi.

Integrativ yondashuv o'quv yili uchun umumiy bo'lgan mavzu, har chorakning asosiy mavzusida o'z rivojini topishini ta'minlaydi. Shu asosida o'quv mashg'uloti uchun qo'yilgan g'oyalarning gorizontalar harakati amalga oshiriladi. Xuddi shu yo'l bilan vertikal harakat ham amalga oshiriladi (sinf dan sinfga), bunda bir mavzu o'quvchilarning o'zlashtirishiga qarab, murakkablashib boradi. Integrativ yondashuvda o'quvchilarning olam bilan o'zaro aloqalari aks etuvchi mavzular kiritiladi, ya'ni o'quvchi idrokida noma'lum bo'lgan uzoq olam (kosmos, yulduzlar, yer kurrasi, katta bo'shliqlar) va yaqin olam (mikroolam, uy hayvonlari, o'simlik dunyosi, o'zi yashab turgan hududi tabiati).

Integrativ darslar stoxastik xarakterga ega. Dars jarayonida turli kutilmagan, rejalashtirilmagan, favqulodda holatlar ham uchray turadi. Bu vaziyatda o'qituvchining professional yondashuvi avvaldan rejalashtirilgan dars loyihasiga o'zgartirishlar kiritishni taqozo etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy ongini rivojlantirishda o'quv fanida o'zaro va mazmunan bir-birini to'ldiradigan fanlar, mavzular, g'oyalarni birlashtirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, tabiatshunoslik, tarbiya, o'qish fanlaridagi ba'zi mavzularni turli xil nuqtai nazardan ko'rib chiqish, birlashtirish

imkoniyati bo'лади. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-iyuldan kuchga kirgan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori<sup>2</sup> alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Qarorda ta'lim mazmunini shakllantirishda barcha o'quv fanlarini insoniylashtirish, milliy, ijtimoiy-iqtisodiy, estetik, huquqiy ongni rivojlantirish, milliy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalashga e'tibor qaratilgan.

"O'qish", "Ona tili", "Musika", "Tasviriy san'at", "Tarbiya" fanlari o'quvchilarda insonparvarlik tabiatini aks ettirishga qaratilgan. Mazkur o'quv fanlari o'quvchilarda ijtimoiy ongning turli shakllari rivojlanishiga, ular tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan. O'quv fanlari o'quvchining nutqi va tasavvurini rivojlantiruvchi diqqatga, mavzuni anglashga, faollashtirishga qaratilgan. Shu o'rinda, o'quvchilarning bilish jarayonida o'quv fanlaridagi bir-biri bilan mazmunan bog'liq mavzularni birlashtirish uzviy bog'liq bo'lgan tafakkurning rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflardagi har bir o'quv fani o'quvchilarning jamiyat iqtisodiy-ijtimoiy ehtiyojlarining mohiyatini yoritib berishga xizmat qiladi. Shuning uchun, o'quv fanlari o'quvchilarning yashab turgan jamiyati haqidagi fikrlar, iqtisodiy-ijtimoiy tizim faoliyati bilan bog'liqlikda yo'naltirilishi lozim bo'лади.

Integrativ darslarning yana bir afzalligi, bir mavzuni turli jihatlarini o'rganishda qarama-qarshiliklarni kelib chiqishidir. Qarama-qarshiliklar har doim yangi fikrlarning kelib chiqishiga va bu jarayon o'quvchi ongida qolishiga sabab bo'лади. Bunda o'quvchilar axborotlar oqimini boshqarish, muhim ma'lumotlarni ajratish, mustaqil qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni egallab boradi.

Boshlang'ich ta'limda ayni vaqtda yashab turgan davr va o'tmishni yoritib beruvchi milliy, tarixiy, ma'naviy, ijtimoiy ahamiyatga ega mavzular, asarlarni tanlash kerak. O'quvchilar turli nuqtai nazar, tasvirlar orqali yashab turgan va

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 06.07.2020 yildagi @Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son Qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2020-y., 09/20/422/1033-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son; 08.05.2023-y., 09/23/193/0260-son.

o'tmishga oid hayotiy voqealar, hodisalar, rivojlanish bosqichlarini tushunib boradi. O'quv fanlaridagi o'zaro aloqalar va mazmunan o'zaro to'ldirishlar o'quvchilarning ijtimoiy ongi rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimi yaratilgan bo'lib, boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchi shaxsining rivojlanishi, atrof-olamni idrok etishi, bilimlarni o'zlashtirishi, ko'nikma va malakalar, ilmiy tasavvurlarning hosil bo'lishida muhim bosqich hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisida bilish jarayoni ijodiy faoliyat natijasida yuz beradi. O'quvchining berilgan topshiriqni bajarish jarayonida izlanishi, ijodiy faoliyati namoyon bo'lishi uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan, me'yor va mezonlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini anglagan faoliyatga zaruriyat seziladi. Bu esa o'quvchilarda atrof-olam haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, ta'lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi.

Integrativ darslarning maqsadi nafaqat fanlararo bog'liqlik, balki mahalliy ishlab chiqarish, iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlariga tayangan holda zamonaviy kasblar bilan ham bog'lash va milliy hunarmandchilik an'analari bilan uyg'unlashtirish kerak bo'ladi. Bu orqali o'qituvchilar Texnologiya fanini umumiy mehnat va aniq kasbiy ko'nikmalar bilan tanishtiradi, kasblar va mutaxassisliklararo bog'liqliklar borligini tushuntiradi. Misol tariqasida 4-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan Texnologiya fani darsligida tikuvchi, to'quvchi, kulol, oshpaz kasblarining faoliyat turlari va ayrim amaliy topshiriq namunalari bajarilishi keltirib o'tilgan.<sup>3</sup> Mazkur topshiriqlar orqali o'quvchilar mehnat faoliyatini tashkil etishda turli bosqichlarni bilishi, ularni amalda qo'llay olishi va shu asosda mehnat jarayoni yuzaga kelishi haqida bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'ladi. Biror mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ma'lumotlar to'plash, faoliyat ketma-ketligini, kerakli materiallar va ish qurollari, vaqtni rejalashtirish, o'zi tomonidan amalga oshirilgan mehnat faoliyatini baholash kabi bosqichlarni amalga oshirish kerak bo'ladi. Bu bosqichlarni bilishi va qo'llay olishi nafaqat

---

<sup>3</sup> Mannopova I.A., Mavlonova R. A., Ibragimova N. R. Texnologiya. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik // O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. –T.: 2017.-56 b.

Texnologiya fanida, balki boshqa o'quv fanlarida ham zaruriy ko'nikmadir.

“Boshlang'ich ta'limdagi har bir predmet bu integratsiyalangan kurs, mazmun jihatdan ular tabiiy-matematik sikl bilan uzviy bog'liq”<sup>4</sup> bo'lib, o'quvchilarning atrof-muhit, aniq va ijtimoiy fanlarni o'rganishiga xizmat qiladi. Bu orqali o'quvchilarga atrofdagi olamni o'zaro bog'liqligini hamda tabiatdagi turli-tumanlik undagi muvozanatni ta'minlashi ochib berilsa, boshqa tarafdin maktabda o'rganilayotgan bilimlar “hayotiy bilimlar” ekanligini tushunishiga yordam beradi.

O'quvchilar nutqini o'stirish har bir o'quv fanining maqsadi hisoblanib, darslarda o'quvchilar yangi, kerakli tushunchalarni egallaydi, o'zlarining fikrlarini tartibga soladi, noto'g'ri tushunchaga ega bo'lgan bo'lsa, to'g'ri tushunchaga yo'naltiriladi. Integrativ darslar esa o'quvchining bir o'quv fani bilan chegaralamasdan, atroflicha, keng qirrali, to'liq, tugallangan mazmunga ega fikr shakllanishi imkoniyatini beradi. Integrativ darslar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini tizimlashtiradi, kundalik hayotda kuzatish qobiliyatini faollashtiradi, bilimlarni “keng va chuqur” o'rganishni maqsad qiladi. Integrativ dars mashg'ulotlari o'quvchining egallagan bilimni nostandart vaziyatlarda ham qo'llab ko'rish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, integrativ dars o'quvchilarning o'rganish ehtiyojlariga mos tushishi, o'rganish imkoniyatlarini taqdim etish bilan birgalikda turli fanlarning bir-biriga bog'liqligi, “fanlarning keskin chegarasi”dan chiqib, fanlararo fikrlash, tushunish, mulohaza qilish imkoniyatini yaratishdan iborat.<sup>5</sup> Integratsiyalashgan darslar o'rganishning barcha bosqichlarida o'quvchilar o'rganayotgan mavzularning izchilligi, mantiqan bog'liqligi, bir-birini to'ldirib borishlilikini talab etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

---

<sup>4</sup> Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. –T.: Ilm-ziyo, 2009. –192 B.

<sup>5</sup> Schmitz S. Lernbereichsübergreifender Deutschunterricht in der Grundschule/ München, GRIN Verlag, 2009. - p.45, <https://www.grin.com/document/198057>.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 06.07.2020 yildagi Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son Qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.07.2020-y., 09/20/422/1033-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son; 08.05.2023-y., 09/23/193/0260-son Yo‘ldoshyev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: 2004. – 56-B.

2. Mannopova I.A., Mavlonova R. A., Ibragimova N. R. Texnologiya. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. –T.: 2017.-56 b.

3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. –T.: Ilm-ziyo, 2009. –192 B.

4. Schmitz S. Lernbereichsübergreifender Deutschunterricht in der Grundschule/ München, GRIN Verlag, 2009. -p.45, <https://www.grin.com/document/198057>.